



Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun


- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra viloyatda 3 224 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 717 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 516 tasi (16,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 306 tasi (9,5 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 300 tasi (9,3 %) kiyim ishlab chiqarishga va 254 tasi (7,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- dekabr holatiga ko'ra





II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan **43 527,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **107,0** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	43 527,4	107,0

tumanlar:

Olot tumani	873,1	104,8
Buxoro tumani	1 167,5	105,1
Vobkent tumani	1 197,5	102,4
G'ijduvon tumani	2 863,8	107,6
Kogon tumani	2 166,8	103,5
Qorako'l tumani	1 097,9	107,4
Qorovulbozor tumani	17 131,0	111,4
Peshku tumani	1 141,3	118,0
Romitan tumani	1 860,9	107,2
Jondor tumani	1 305,5	103,5
Shofirkon tumani	962,3	104,8
Buxoro sh.	4 304,2	102,6
Kogon sh.	1 282,4	107,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (**836 761,6** ming so'm), Kogon tumanida (**24 929,1** ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**20 846,0** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **105,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, Peshku tumanida (**116,0** %), Qorovulbozor tumanida (**109,3** %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **39 847,4** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**91,5 %**)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **276,0** mlrd so'm (**0,6%**), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **3 030,1** mlrd so'm (**7,0 %**) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **373,9** mlrd so'm (**0,9 %**) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar- noyabr oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1 747,8 ming l 100% li aroq (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 49,3 % ga kamaygan), 1 746,0 ming tonna avtomobil benzini (1,8 % ga ko'paygan), 27 552,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,5 % ga ko'paygan) hamda 11 650,0 ming kv.m ip gazlamalari (30,5 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Aroq-ming l 100% li spirt	4 210,0	3 446,1	1 747,8
Avtomobil benzini, ming t	925,5	924,7	941,4
Xom yoki tozalanmagan oltinugurt, t	920,0	1 009,6	1 536,7
Dizel yoqilg'isi, ming t	167,5	232,3	379,4
Mazut, ming t	50,7	71,2	58,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7 307,6	9 523,2	8 651,9
Paxta tolasi, t	73 096,0	60 486,0	66 296,0
Paxta chigiti, t	115 431,0	95 320,0	99 414,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	16 730,8	26 363,5	27 552,6
Ip gazlamalari, ming kv.m	9 154,1	16 754,8	11 650,0

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,0 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,6 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar- noyabr oylarida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2,2% (3,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 50,4 % (49,9 %), quyi texnologiyali 47,3 % (46,8 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo‘yicha)

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 86,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 78,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr *	2025-yil yanvar-noyabr
---------------------	-------------------------	--------------------------	------------------------



Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 845,3	1 563,0	1 356,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	608,6	591,6	463,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar **15,4** % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **4,1** % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **0,7** % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr *	2024-yil yanvar-noyabr *	2025-yil yanvar-noyabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	17 574,4	29 794,1	31 028,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	384,2	374,5	377,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	102 074,9	169 611,7	195 766,3

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 19 395,1 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi boʻyicha taʼrif



Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-82 (8010)

